

Talabalarda Ekologiyaga Tarbiyaga Oid Kompetensiyalarni Shakllantirish Pedagogik Muammo Sifatida

To'raqulov Erkin To'ychievich

O'zbekiston, Termiz Davlat Universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Respublikamiz xududida tabiiy va texnogen ofatlarni yuzaga keltiradigan xavf doimo saqlanib qolmoqda. Bular haqida talabalarga to'la ma'lumot berish, ular yuz berishini oldini olish, ulardan o'zi, oilasi, do'stlarini ximoya qilish mumkinligi, tabiiy va texnogen ofatlar sodir bo'lganda qilinishi zarur bo'lgan tadbirlar haqidagi yo'l-yo'riq berishni axoli vakillariga, shu jumladan, talabalarga o'rgatish nixoyatda dolzarb pedagogik, psixologik, iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy muammo xisoblanadi.

Kalit so'zlar: Atmosfera, tabiiy ofatlardan, yong'inlar, texnik xalokatlar, gidrotexnik inshootlar, avariylar, pandemiya, terrorizm, pedagogika, bilim.

Jahonda insoniyatning global qadriyati sifatida xavfsizlikning ahamiyati muttasil ortib bormoqda. Xalqaro tashkilotlarning "Ta'lim – taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga etkazuvchi muhim faoliyat turi" degan e'tirofi asosida katta yoshdagi aholi kompetentligini baholash xalqaro dasturi (PIAAC)dan foydalanish hamda innovatsion yondashuvni ta'lim jarayoniga izchil joriy etishni taqozo etadi. Bu hayotning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, axborot va psixologik stressning kuchayishi, atrof-muhitning holati va mehnat sharoitlari bilan bog'liq. Hozirgi vaqtda industriallashgan jamiyatdan xavflar jamiyatiga o'tish haqida gapirish mumkin. Xavfsizlik muammolari orasida shaxsiy xavfsizlikni shakllantirish alohida o'rin tutadi, shu jumladan talabalar xavfsizligi ham. Bu axborot oqimining intensivligi, o'quv jarayonida texnik vositalar va kompyuter texnologiyalarining keng joriy etilishi, talabalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligi holatiga, ularning o'ziga xos xususiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan kuchli ijtimoiy-iqtisodiy bosimning natijasidir. Inson va tabiat orasida munosabatlar o'zining tarixiylikiga ega.

Jahon miqyosida Birlashgan Millatlar tashkiloti qoshidagi qator qo'mitalar faoliyati insonlarning hayot faoliyati xavfsizligi muammolari, yuz berishi mumkin bo'lgan turli favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan. Jumladan, BMT qoshida faoliyat ko'rsatayotgan 16 dan ziyod ixtisoslashgan tashkilotlarning bir nechtasi hayot faoliyati xavfsizligi va aynan shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa masalalar bo'yicha shug'ullanadi. Masalan, atrof-muxitning o'zgarishi natijasida insonlar salomatligini saqlashga va mustahkamlash, atrof-muxitning sanitariya-epidemiologiya monitoringi va boshqa shu yo'nalishga oid xalqaro faoliyat olib borish uchun Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti, Bosh qarorgohi Jenevada joylashgan Jahon meteorologiya tashkiloti, Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) tashkiloti, Evropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE)ning faoliyat turlariga tabiat va atrof-muxit bilan bog'liq bo'lgan turli tabiiy, texnogen va ekologik tushadigan ofatlarning oldini olish, ularni o'rganish, bartaraf etish va boshqa insoniyat kelajagiga xavf soluvchi omillarni yo'q qilish kabilar kiradi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi farmonda "Atrof-muhit, aholi sog'ligi va genofondiga putur yetkazuvchi ekologik muammolarning oldini olish" dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Jumladan, ekologiyani ko'p tarmoqli soha sifatida baholash, ekologiyaning ilmiy, tarbiyaviy mohiyati va zamonaviy mazmuni, innovatsion tafakkur

yuritish va yangicha yondashuvlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ekologik ta'lim – tarbiya sifati va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'lim olayotgan talabalarning faoliyatidagi ekologik muammolarga oid ilmiy tasavvurlari natijasida ekologik tarbiyaga oid kompetensiyalarini shakllantirishga doir o'quv materiallarini tanlash asosida ta'lim – tarbiya sifatini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish muhim. O'zbekiston Respublikasida aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish Davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasining "Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi Qonunlari va Hukumatning bir qator qonun osti hujjatlarining ishlab chiqilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashi kerak. Buning uchun biz tabiatga e'tibor berishimiz, faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o'ylab ish tutishimiz zarur" – deb aytgan fikrlari yosh avlod ekologik madaniyatini shakllantirishning dolzarbligini asoslaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-son, 2020-yil 6-noyabrdagi «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6108-son farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-76-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-son, 2020-yil 18-fevraldagi "Ekologik xavfsizlik to'g'risida umumiy texnik reglament" 95-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasining davlat yoshlar siyosati to'g'risida" gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan yoshlarni "yashil makon" umummilliy dasturida faol ishtirok etish bo'yicha targ'ibot, hamda ekologik tarbiya, ekologik xavfsizlik sohasiga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi . Toshkent, "O'zbekiston", 2017.
2. Астанакулов, К. Д., Умиров, А. Т., & Курбанов, А. Ж. (2012). Исследование движения зерна и соломыстых частиц на роторном сепараторе и жалюзийном решете. Сельскохозяйственные машины и технологии, (6), 33-35.
3. Abdusalomov, O. (2023). Dasturlashtirilgan ta'lim vositasida texnologiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(1 Part 2), 143-146.
4. Sherali o'g'li, A. J. (2024). The Essence of Interactive Methods In The Development Of Students' Knowledge Of Technical Safety In The Credit-Module System. Progress Annals: Journal of Progressive Research, 2(2), 30-36.
5. Kadyrov B. E. The content of the development of students'creative skills regarding national craft in technology lessons //Science and Education in Karakalpakstan ISSN 2181-9203. – С. 123.
6. Saminjon o'g'li, S. F. (2023). Innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayonlarida qo'llash va loyihalash metodi. Наука и технологии, 1(2).
7. <http://www.literature.uz>.
8. <http://www.connect.uz>
9. <http://okvl.uz>